

"YANGI O'ZBEKISTON"

Shomurodova Sabohat

Termiz davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar, yutuq va rivojlanishlar haqida fikr-mulohazalar, O'zbekistonni yangi bosqichga ko'tarishda belgilangan taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: demokratiya, strategiya, "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renessans", yangicha dunyoqarash.

Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatatiga aylanmoqda.

Shavkat Mirziyoyev.h.

"Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istik, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir," - deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. So'nggi yillar davomida mamlakatimizda turli sohalarda jadal rivojlanish kuzatilmoxda. Buni xalqaro ekspertlar ham albatta yuqori baholashyapti. "Yangi O'zbekiston" so'zi esa allaqachon xalq ichiga kirib bordi. Yangi O'zbekiston demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir. So'nggi 5 yillikda belgilangan islohotlarning natijasida Yangi O'zbekistonni rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ilmiy-ma'rifiy ishlarda ko'plab yutuqlarga erishdik. Keyingi yillarda, ya'ni 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirishga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda "inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning faravonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholi salomatligini ta'minlash maqsadida Sog'liqni saqlash

tashkilotlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, O'zbekiston yoshlariga ta'lim sohasida keng imkoniyatlar yaratib berish, o'rta ta'lim tizimini zamon standartlariga moslashtirish, ehtiyojmand oilalarga moddiy ko'mak ko'rsatish, milliy iqtisodiyotni o'sish darajasini yuksaltirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish tendensiyalarini va yana ko'plab sohalarni rivojlantirilishi maqsad qilib belgilab olindi. Va biz, O'zbekiston fuqorolari amaliy isbotini ko'rayapmiz. Xususan, talaba sifatida shuni aytishim mumkinki, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning shohidi bo'layapmiz. Darhaqiqat, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, vazirlik huzuridagi ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikda bakalavr ta'limi yo'nalishi talabalari o'rtasida "Yangi O'zbekistonni o'zimiz o'z qo'llarimiz bilan bунyод etamiz" shiori ostida talaba yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini, fikrlash qobiliyatlarini va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga o'zlarining shaxsiy munosabatlarini aniqlash, "Uchinchi Renessans" poydevorini qurishda yoshlarning faol ishtirokini aniqlash maqsadida Respublika esselar tanlovi o'tkazildi. Bunda barcha viloyatlardan kelgan talaba yoshlарimiz faol ishtirok etishdi va pul mukofotlari, prezident sovg'asi, diplom va turli salohiyatdagi nominatsiyalar bilan taqdirlандilar va o'zlarining hissalarini qo'shishdi. Talaba yoshlарimiz faqatgina o'qish bilan chegaralanib qolmasdan, ma'naviy-ma'rifiy hordiq olish, vaqtini mazmunli o'tkazish, iste'dodlarini ro'yobga chiqarish maqsadida turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, joylarda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik" shiori ostida bo'lib o'tadigan yoshlar festivallari ham tashkil etildi. Bunday tadbirlarning o'tkazilayotganligi esa, O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishda belgilangan taraqqiyot strategiyasining bir ko'zlangan maqsadi amalga oshayotganligidan dalolat. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon jamiyat barpo etish aslida bir insonning qo'lidan kelmaydi. Yangi O'zbekistonning rivojiga hissa qo'shguvchilar bu siz, men, mahalladoshlar, qon-qarindoshlar, umuman olganda o'zini hujjatlarda emas, aynan haqiqiy o'zbek farzandi, shu tuproqning egasi deb bilganlar hisoblanadi. Yoshlarning umuman olganda, barcha fuqarolarning huquqiy ongini o'stirishda mahallaning o'rni o'ziga yarasha salmoqli. Taraqqiyot strategiyasining yana bir muhim maqsadlaridan biri aynan mahalla faoliyati bilan bog'liq. Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali olib kirilyapti. Ushbu islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimizga yetkazish, targ'ibot tadbirlarini o'tkazish aynan mahallalar targ'ibotchilari

zimmasiga yuklatildi. Mahallalarda aholi kayfiyatini ko'tarish maqsadida "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari tashkil etildi va bunday islohotlarning samarasini ijobjiy natijalarni ko'rsatmoqda.

Agar har bir inson o'z faoliyati, tashabbusi bilan mamlakatimiz ravnaqiga o'zining hissasini qo'shsa, ko'plab sohalarda rivojlanishning tezlashishini kuzatish mumkin. Misol uchun, yurtimizning barcha vohalarida zamonaviy ayol obrazini yaratish uchun xotin-qizlarimizning jamiyatdagi faol ishtiroki, mamlakatimiz istiqboli yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim-salohiyati va mas'ulihatini o'z zimmasiga olmoqchi bo'lgan qizlarimizning safini kengaytirish. Agar har bir inson o'z faoliyati, tashabbusi bilan mamlakatimiz ravnaqiga o'zining hissasini qo'shsa, ko'plab sohalarda rivojlanishning tezlashishini kuzatish mumkin. Misol uchun, yurtimizning barcha vohalarida zamonaviy ayol obrazini yaratish uchun xotin-qizlarimizning jamiyatdagi faol ishtiroki, mamlakatimiz istiqboli yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim-salohiyati va mas'ulihatini o'z zimmasiga olmoqchi bo'lgan qizlarimizning safini kengaytirish orqali jamiyatda gender tenglikni ta'minlash maqsadida "Qizlar ovozi" klubi o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Shu jumldan, Surxondaryo viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" guruhi klubi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdi. Kuni kecha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filialida qizlar o'rtasida katta o'quv seminar bo'lib o'tdi. Seminarda xotin-qizlarimizning muommolariga yechim topildi, qizlarimizning iqtidorlarini yuzaga chiqarishdagi chora-tadbirlar, psixologik treninglar hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishlariga da'vat etildi. Talaba qizlarimiz Yangi O'zbekistonimiz rivojlanishi yo'lida qo'shgan hissalari uchun munosib taqdirlandilar. Buning isboti ila "Qizlar ovozi" Termiz shahar bosh koordinatori, Termiz davlat universiteti Rus va qardosh tillar fakulteti (lingvistika) yo'nalishida tahsil olayotgan 1-bosqich magistrant Ismoilova Farzona Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan "Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun" xalqaro ilmiy-amaliy ko'rnik tanlovida ishtirok etib, faxrli ko'krak nishoni, avtobiografiyalar bilan taqdirlandi. Bu esa O'zbekistonda ta'lim sohasida yaratilayotgan keng imkoniyatlarning nishonasidir.

"Ishonchim komil, biz jonajon Vatanimizga bo'lgan cheksiz mehrimiz va sadoqatimizni muqaddas bayroq qilib, bor bilim va tajribamiz, aql-zakovatimizni ishga solib, yagona xalq, yagona millat bo'lib, ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga, albatta, yetamiz, - deya fikr billdirgan prezidentimiz. Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fikrlarida yuksak maqsad va ishonch mujassamdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib

obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi.

Biz bunga nafaqat ishonamiz, balki shu yo'lida bor bilim va tajribamizni, kuch-g'ayratimizni safarbar etishga hamisha tayyormiz. O'zbekistonlik barcha fuqarolarni ana shunday ulug' safda Yangi O'zbekiston bunyodkorlari qatorida bo'lishlarini chin dildan istaymiz va chuqur ehtirom va da'vat ila ularni birdamlikka chorlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston nashriyoti-2021.
2. "Xalq so'zi" gazetasi, <https://uz/news/yangi-o'zbekiston-demokratik-o'zgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.